

O‘ZBEK TILIDAGI JO‘NALISH KELISHIGI VA KOREYS TILIDAGI UNGA MOS QO‘SHIMCHALAR TAHLILI

Oktyabrova Ruhshona Olimboy qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Koreyashunoslik Oliy maktabi 2-kurs bakalavr talabasi

oktyabrovar@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek tilidagi jo‘nalish kelishigi va koreys tilidagi unga muvofiq shakllarning qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan. Maqolada har ikki tilda harakatning yo‘nalishini, manzilini yoki shaxsga qaratilganligini ifodalovchi grammatik vositalarning o‘xshash va farqli jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda o‘zbek tilidagi “-ga, -ka, -qa” qo‘shimchalari bilan koreys tilidagi “-에, -에게, -한테, -으로, -로” shakllarining ma‘no va funksional jihatdan qiyoslanishi amalga oshirilgan. Bundan tashqari, bu shakllarning fe‘l bilan bog‘lanish xususiyatlari va ularning gapdagi sintaktik o‘rni tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Jo‘nalish kelishigi, grammatik vosita, o‘zbek tili, koreys tili, qo‘shimcha, ma‘no, yo‘nalish, fe‘l.

Til bu dunyoni anglash va uni ifodalashning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir tilda so‘zlar orasidagi aloqani, ya‘ni sintaktik munosabatni ifodalovchi o‘ziga xos grammatik mexanizmlar mavjud. O‘zbek tilida bu vazifani, asosan, kelishiklar, xususan, jo‘nalish kelishigi bajaradi. Bu kelishik harakatning qayerga, kimga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi va o‘zbek tilining grammatik tuzilishida muhim rol o‘ynaydi. Koreys tilida esa o‘zbek tilidagi singari shakliy jihatdan teng keluvchi kelishik kategoriyasi bo‘lmasa-da, bu funktsiyani bajaradigan maxsus yordamchi shakllar – postpozitsiyalar mavjud. O‘zbek tilidagi jo‘nalish kelishigi va koreys tilidagi unga mos keladigan shakllarni qiyosiy o‘rganish orqali biz bu ikki tipologik jihatdan yaqin tillarning o‘xshash va farqli xususiyatlarini aniqlashimiz mumkin.

O‘zbek tili agglutinativ til hisoblanadi. Jo‘nalish kelishigi bu tilda so‘zga qo‘shiluvchi “-ga, -ka, -qa” affikslari orqali yasaladi. Bu qo‘shimchalar fe‘l bilan bog‘lanib, harakatning yo‘nalish joyi, shaxsi yoki abstrakt manzili kabi ma‘nolarni bildiradi¹. Ular odatda “kimga?”, “nima(ga)?”, “qayerga?” so‘roqlariga javob bo‘ladi.

Misol tariqasida quyidagi misollarni keltirish mumkin:

1. Maktabga bordim. (Makonga yo‘nalganlik);
2. Do‘stiga sovg‘a berdi. (Shaxsga atalganlik);
3. Bolalikqa qaytdi (Abstrakt manzilga yo‘nalganlik).

Jo‘nalish kelishigining asosiy sintaktik vazifasi – gapda ikkinchi darajali bo‘lak, ya‘ni to‘ldiruvchi yoki hol vazifasida kelib, harakatning qaratilgan obyektini ifodalashdir. E‘tiborli tomoni shundaki, jo‘nalish kelishigi faqatgina jismoniy harakatni emas, ma‘naviy yoki ruhiy

¹ “Sayfullayeva R.R., Mengliyeva B.R., Raupova L.R., Qurbonov M.M., Abuzalova M.Q., Yo‘ldashev D.N. Hozirgi o‘zbek tili. -Toshkent: Zebo Print, 2021. – B.167.”

intilishlarni ham ifodalaydi. Masalan, Men sizga ishonaman, U o‘qishga qiziqadi, Ular ilmga chanqoq. Shuningdek, jo‘nalish kelishigi semantikasiga xoslik, atalganlik, tenglashtirish kabi ma‘no turlari ham mos². Bu ma‘nolar birikuvchi so‘zlarning xususiyatidan kelib chiqib o‘zgarib ketaveradi:

Bu kitob dadamga tegishli. Ushbu gapda xoslik ma‘nosi ifodalangan.

U tog‘ga o‘xshab qat‘iy. Mazkur jumla esa, tenglashtirish ma‘nosida tuzilganini ko‘rish mumkin.

Koreys tilida o‘zbek tilidagi kelishiklarga o‘xshash bir butun shakl yo‘q, ammo ularning ma‘nosini so‘zdan keyin keluvchi postpozitsiyalar (yordamchi birliklar) ifodalaydi. O‘zbek tilidagi jo‘nalish kelishigiga mos keladigan eng asosiy koreyscha shakllarga “-에” (e), “-에게” (ege), “-한테” (hante), “-으로 / -로” (uro / ro) va ba‘zi hollarda “-처럼/같이”, (choreom/kachchi), “-을/를 위해”, (ul/ril wihe) va “-(으)러” (uro/ ro) kabilarni kiritish mumkin.

-에게 (ege) / -한테 (hante): Shaxsga va hayvonga yo‘nalgan harakatni ifodalash uchun ishlatiladi. “-에게” (ege) yozma nutqda, “-한테” (hante) esa og‘zaki nutqda ko‘proq qo‘llanadi. Hayvonlar bilan ko‘roq “-한테” ishlatiladi³.

친구에게 편지를 보냈어요. Do‘stiga xat yubordi.

선생님한테 물어봤어요. O‘qituvchidan so‘radi.

고양한테 먹이를 줬어요. Mushukka ovqat berdim.

-에 (e) qo‘shimchasining ishlatilish holatlari:

a) Ko‘pincha obyekt ish-harakatining makoni, vaqti yoki yo‘nalishini bildiradi.

학교에 가요. Maktabga boraman. – Harakatning manzilini bildiradi.

집에 있어요. Uyda bo‘laman. – Harakatning joyini bildiradi.

세 시에 수업이 시작해요. Soat uchda dars boshlanadi. – Harakatning vaqtini bildiradi.

b) Harakat sababi yoki manbasini ko‘satadi.

쓸데없는 일에 시간을 쓰지 마세요. Befoyda narsaga vaqt sarflamang.

소리에 일어났어요. Shovqinga turib ketdi.

c) Baholash mezoni sifatida ishlatiladi⁴.

신발을 얼마에 샀어요? Oyoq kiyimni qanchaga oldingiz? - Abstrakt ma‘noni bildiradi.

d) narsalarga nisbatan ishlatiladi.

꽃에 물을 줬어요. Gulga suv quydi. -Harakatning narsaga yonalishini bildiradi.

Yuqoridagi misollar asosida ko‘rinadiki, koreys tilidagi -에 qo‘shimchasi keng grammatik imkoniyatlarga ega bo‘lib, u jo‘nalish kelishigi vazifasini bajaradi. Ushbu qo‘shimcha orqali harakatning makoni, vaqti, sababi, manbai, baholash mezoni hamda yo‘nalishi ifodalanadi. Shu

² “O‘sha manba. – B.167.”

³ :Kim Chun Sig, Mirtalipova G., Kim Min Uk, Ismailov A. Koreys tili grammatikasi. - 서울: 도서출판 뽀엘, 2014. -B. 159.:

⁴ :O‘sha manba. -B.159.”

jihatdan, -에 qo'shimchasi predmet yoki hodisaning qayerda, qachon va qanday sharoitda sodir bo'lishini aniqlovchi grammatik vosita sifatida xizmat qiladi.

- 으로 / -로 (uro / ro) qo'shimchasi harakatning yo'nalishi, tomoni, shuningdek, vositasini ifodalab keladi. Masalan:

서울로 갔어요. Seulga bordim. - Yo'nalish.

왼쪽으로 가세요. Chap tomonga boring. - Tomon.

한국어로 말했어요. Koreys tilida gapirdi. - Vosita (usul).

불편으로 쓰세요. Ruchkada yozing. - Vosita

-을/를 위해 (ul/ril wihe) esa otga qo'shilib, atalganlik ma'nosini ifodalash orqali jo'nalish kelishigiga sinonimlik hosil qiladi.

동생을 위해 요리해야 돼요. Ukamga ovqat qilishim kerak.

어머니를 위해 꽃을 샀어요. Onamga gul sotib oldim.

Yuqoridagi misollarda aniq bo'ladiki, ushbu qo'shimcha harakatning kim yoki nima uchun atalganligini bildirib keladi.

-(으)러 (uro/ ro) qo'shimchasi obyektning ish-harakati sababi yoki maqsadini jo'nalish kelishigi orqali ifodalab keladi.

점심을 먹으러 샌드위치 만들었어요. Tushlik qilishga sendvich tayyorladim.

편지를 보내러 우체국에 갔어요. Xatni jo'natishga pochtaga bordim.

Mazkur qo'shimcha ish-harakat egasi ma'lum maqsadga yo'nalgan harakatlarni bajargani yoki bajarishi jo'nalish kelishigi orqali yoritib berilgan.

-처럼/같이(choreom/kachchi) ifodasi esa otga qo'shilib, tenglashtirish, o'xshashlik ma'nosini, ya'ni biror shaxs, predmet, holat boshqa bir jonli yoki jonsiz narsaga o'xshatilganda jo'nalish kelishigi bilan sinonimlik hosil qiladi.

그 여자는 해처럼 빛나요. U qiz quyosh kabi porlaydi. - Shaxsni narsaga tenglashtirish.

Shuningdek, ba'zi ma'naviy yo'nalishni ifodalovchi holatlar:

조언에 따르세요. Maslahatga amal qiling.

선생님의 의결에 동의해요. Ustozning fikriga qo'shilaman.

학습 과정에 참가하지 않았어요. O'quv jarayonlariga qatnasha olmadim.

Tepadagi misollardan ko'rishimiz mumkinki, koreys tilidagi ushbu qo'shimchalar harakatning mazmuniy aniqligini ta'minlab, o'zbek tilidagi jo'nalish kelishigi bilan semantik yaqinlikni hosil qiladi. Shuningdek, ular faqat jismoniy, balki ma'naviy yo'nalishni ham ifodalab kelishi bilan boshqa kelishik qo'shimchalardan farqlanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zbek va koreys tillarida yo'nalish ma'nosining grammatik ifodalanishi shaklan turlicha bo'lsa-da, ularning funksional mohiyati jihatidan o'xshashlik mavjud. O'zbek tilida bu ma'no asosan jo'nalish kelishigi orqali, ya'ni "-ga, -ka, -qa" qo'shimchalari yordamida ifodalansa, koreys tilida unga mos vazifani "-에, -에게, -한테, -으로/로" kabi postpozitsiyalar bajaradi. Har ikki tilda ham bu birliklar harakatning manzili,

yoʻnalishi, shaxsga yoki narsaga qaratilganligini bildiradi, shu bilan birga, maʼnaviy va abstrakt yoʻnalishni ifodalash imkoniyatiga ham ega.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, oʻzbek tilidagi kelishik kategoriyasi morfologik jihatdan mustaqil shaklga ega boʻlsa, koreys tilida bu vazifani sintaktik birlik – postpozitsiya bajaradi. Bu holat koreys tilining analitik xususiyatlarini namoyon etadi. Shuningdek, har ikki tilda yoʻnalish maʼnosini ifodalovchi vositalarning feʼl bilan bogʻlanish darajasi yuqori boʻlib, ular gapning semantik tuzilishida muhim rol oʻynaydi.

Demak, oʻzbek va koreys tillaridagi yoʻnalish maʼnosining grammatik ifodalanishini qiyosiy oʻrganish ikki tilda harakatning ifodalanish mexanizmini yanada chuqurroq anglash, shuningdek, koreys tili oʻqitilishi va tarjima jarayonlarida samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfullayeva R.R., Mengliyeva B.R., Raupova L.R., Qurbonov M.M., Abuzalova M.Q., Yoʻldashev D.N. Hozirgi oʻzbek tili. -Toshkent: Zebo Print, 2021.
2. Kim Chun Sig, Mirtalipova G., Kim Min Uk, Ismailov A. Koreys tili grammatikasi.- 서울: 도서출판 뽀엘, 2014.
3. Ким О.А. Грамматические особенности падежных частиц корейского языка. – Ташкент, 2010.